



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-oktyabr

RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar- oktyabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 4882,3 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 133,1 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1795,8 ming.so'mni tashkil etdi.

Ma'lumki, xizmatlar ko'rsatish tizimini yaxshilash va modernizatsiya qilish aholi turmush darajasini oshirish, investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va tadbirkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 4882,3 mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,1 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni savdo xizmatlari (36,2 %), transport xizmatlari (19,7 %), moliyaviy xizmatlar (10,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (7,5 %) tashkil etdi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida xizmatlar tarkibi,%



2018 yil yanvar-oktyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 118965,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,5 % ni tashkil etdi.


**2018 yil yanvar- oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	4882,3	108,1
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	366,8	116,7
Moliyaviy xizmatlar	490,9	133,1
Transport xizmatlari	963,3	102,2
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	889,7	102,9
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	91,2	103,2
Savdo xizmatlari	1769,4	104,8
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	157,5	104,4
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	205,6	114,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	91,8	112,4
Ijara xizmatlari	104,3	110,2
Kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	149,5	103,2

Shaxsiy xizmatlar	327,6	103,9
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	42,5	119,1
Boshqa xizmatlar	121,8	107,6

O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlari hajmi 1,8 trln. so'mga, transport xizmatlari (1,0 trln. so'm), moliyaviy xizmatlar (0,5 trln. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (0,4 trln.so'm), ta'lim xizmatlari (0,2 trln.so'm) oshganligi kuzatildi.


2018 yil yanvar-oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi, mlrd.so'm



Me'morchilik sohasidagi xizmatlarda xizmatlar hajmi nisbatan pastroq o'sish (42,5 mln. so'm) qayd etildi.


Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (133,1 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (119,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (116,7 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (114,8 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (112,4 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari transport xizmatlar (102,2 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (103,2 %), Kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlar (103,2 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

2018 yil yanvar- oktyabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



■ **Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda**

■ **Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)**


■ **Avtomobillar va mototsikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar**

Savdo xizmatlari tarkibiga avtomobillar va mototsikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 75,9 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 19,5 % ni tashkil etdi.

Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining 4,5 % ni tashkil qiladi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1795,8 ming.so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 106,2 % ni tashkil etdi.



Namangan viloyat statistika
boshqarmasi Xizmatlar soxasi
statistikasi bo'limi

Mas'ul: B.Zununov

(69) 227-85-28